

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALARI VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**Qo‘lyozma huquqida**

**UO‘K: 330.43:631.14:677(575.1)**

**RUSTAMOVA MEXRIGIYO MUXTOR QIZI**

**PAXTA – TO‘QIMACHILIK KLASTERLARI IQTISODIY  
FAOLIYATINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH**

**08.00.06 – “Ekonometrika va statistika”**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini  
olish uchun yozilgan  
DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar: i.f.d., prof.**

**Alimov Raimjon Xakimovich**

**TOSHKENT – 2025**

**MUNDARIJA**

|                 |                                                                                                                           |            |
|-----------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| <b>I BOB.</b>   | <b>PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARI IQTISODIY FAOLIYATINI TADQIQ ETISHNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI</b>                 | <b>13</b>  |
| 1.1.            | Paxta-to‘qimachilik klasterlari va ularning iqtisodiy nazariyalar bilan bog‘liqligi                                       | 14         |
| 1.2.            | Xorijiy mamlakatlar amaliyotida paxta-to‘qimachilik klasterlari rivojlanishi                                              | 22         |
| 1.3.            | Paxta-to‘qimachilik klasterlarini tadqiq qilishda statistik indikatorlar va ekonometrik usullarning qo‘llanilishi         | 36         |
| <b>II BOB.</b>  | <b>PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARIDA PAXTA YETISHTIRISH SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH</b>                          | <b>51</b>  |
| 2.1.            | Mamlakatimizda yetishtirilgan paxta hajmiga ta’sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili                                | 51         |
| 2.2.            | Paxta yetishtirish jarayonida xarajatlarni shakllantiruvchi omillarni aniqlash va ularni ekonometrik modelashtirish       | 71         |
| 2.3.            | Paxta yetishtirish hajmi va uning tannarx hamda mavsumiy bandlikka ta’sirini SEM modeli orqali ekonometrik modelashtirish | 93         |
| <b>III BOB.</b> | <b>PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARI IQTISODIY FAOLIYATINING HUDUDIY TAHLILI VA ISTIQBOLLI PROGNOZLARI</b>                  | <b>111</b> |
| 3.1.            | O‘zbekiston vohalarida paxta-to‘qimachilik klasterlari xarajatlarining ekonometrik tadqiqoti                              | 110        |
| 3.2.            | Klasterlar faoliyati dinamikasi: 2019–2024-yillarda subsidiya va bandlik ko‘rsatkichlarining statistik tahlili.           | 118        |
| 3.3.            | Paxta-to‘qimachilik klasterlar faoliyatini baholashda statistik prognozlash usullari                                      | 124        |
|                 | <b>Xulosalar va takliflar</b>                                                                                             | <b>140</b> |
|                 | <b>Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati</b>                                                                                 | <b>143</b> |
|                 | <b>ILOVALAR</b>                                                                                                           | <b>157</b> |

## KIRISH

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon iqtisodiyotida paxta-to‘qimachilik klasterlari qishloq xo‘jaligi xomashyosini qayta ishlash, qo‘shilgan qiymati yuqori mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport salohiyatini oshirishning muhim institutsional shakli sifatida namoyon bo‘lib, ularning iqtisodiy faoliyatini ekonometrik modellashtirilishi klaster samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va miqdoriy baholashda strategik ahamiyat kasb etadi. Ekonometrik modellar orqali yer va suv resurslari, agrotexnika va texnologiya darajasi, mehnat unumdorligi, investitsiyalar hajmi, narx konyunkturasi kabi omillarning paxta xomashyosi hajmi, qayta ishlash chuqurligi, rentabellik va eksport tushumlariga ta’siri baholanib, turli siyosat ssenariylarining natijalarini oldindan simulyatsiya qilish imkoni vujudga keladi. FAOning “Agro-based clusters in developing countries” hisobotida agroiqtisodiy klasterlar bo‘yicha siyosat ishlab chiquvchilar uchun “...o‘z mamlakatlarining qishloq xo‘jaligi sektori uchun klasterlashtirish dasturining maqbulligini (dolzarbligini) baholashda qo‘llashlari mumkin bo‘lgan kontseptual me‘yoriy doira” taklif etilgani, qishloq xo‘jaligi va to‘qimachilik qiymat zanjirlarini klasterlashtirish samaradorligini oshirish ma’lumotlarga asoslangan va ekonometrik modellashtirish bilan qo‘llab-quvvatlangan tarmoq siyosatini yuritishni talab qilishini yaqqol ko‘rsatadi<sup>1</sup>. Shu bois, jahon iqtisodiyoti sharoitida paxta-to‘qimachilik klasterlari iqtisodiy faoliyatini ekonometrik modellashtirishning nazariy-uslubiy asoslari va amaliy mexanizmlarini chuqur ilmiy tadqiq etish maqsadga muvofiq.

Jahon miqyosida paxta-to‘qimachilik klasterlari iqtisodiy faoliyatini ekonometrik modellashtirish masalalari qishloq xo‘jaligi xomashyosining barqaror ta’minoti, qayta ishlash chuqurligini oshirish, qiymat zanjirlari samaradorligini baholash va klasterlashtirish siyosati natijadorligini aniqlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarning alohida yo‘nalishi sifatida izchil o‘rganilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda, asosan, yer maydoni, hosildorlik, resurslar bilan

---

<sup>1</sup> Agro-based clusters in developing countries. FAO, 2010. - <https://www.fao.org/home/ru>

ta'minlanganlik va investitsiyalar hajmining paxta xomashyosi hajmi va tannarxiga ta'sirini panel va vaqt qatorlari modellari orqali baholash, klasterlar doirasida qo'shilgan qiymat, ish o'rinlari va daromadlar dinamikasiga ta'sir etuvchi omillarni ko'p omilli regressiya va SEM modellari yordamida tahlil qilish, logistik va eksport infratuzilmasi parametrlarini ekonometrik tarzda modellashtirish, shuningdek, klasterlashtirish siyosatining turli ssenariylari ta'sirini baholash uchun simulyatsiya va ssenariyli modellardan foydalanish ustuvor yo'nalishlar sifatida ko'rib chiqilmoqda.

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, ularni chuqur qayta ishlash, yuqori qo'shimcha qiymat yaratish va eksport hajmini oshirish orqali tarmoq samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu jihatdan, paxta-to'qimachilik klasterlari ishlab chiqarishdan tortib, tayyor mahsulot olishgacha bo'lgan jarayonni o'zida mujassam etgan kompleks tizim sifatida shakllanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bu tizim faoliyatini takomillashtirish, iqtisodiy samaradorligini oshirish va ilmiy asoslangan yondashuvlarni joriy etishni dolzarb vazifa sifatida belgilaganlar<sup>2</sup>. Ushbu vazifaning samarali ijrosini ta'minlash klasterlar faoliyatini statistik va ekonometrik yondashuvlar asosida chuqur tahlil qilishni talab etmoqda. Xususan, yetishtirilgan paxta hajmi va unga ta'sir etuvchi omillar regressiyasi orqali ishlab chiqarish samaradorligini aniqlash, xarajatlar va ularni belgilovchi omillarni baholash, klasterlar soni va eksport hajmini prognozlash, shuningdek SEM model orqali paxta hajmi, paxta narxi va mavsumiy bandlik o'rtasidagi bog'liqlikni ochib berishga qaratilgan ilmiy izlanishlar klasterlar faoliyatini chuqur tushunish va tahlil qilishda alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son "O'zbekiston - 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil

---

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-avgustdagi PQ-4812-sonli "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini tashkil etishning yangi mexanizmlarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”, 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash yili Davlat dasturi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son ““Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2020-yil 3-avgustdagi PQ-4796-son “Milliy Statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

#### **Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor**

**yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarildi.

**Muammoning o‘rganilganligi darajasi.** Klaster faoliyati va iqtisodiy samaradorligini nazariy va amaliy jihatlar qator xorijlik olimlar - Michael Eugene Porter, AnnaLee Saxenian, Paul Robin Krugman, Ann Markusen, Michael Storper, Ron Boschma, Stuart Rosenfeld, Philip Cooke, Richard Florida va boshqalar tomonidan chuqur o‘rganilgan<sup>3</sup>.

---

<sup>3</sup> Porter, M.E. The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press, 1990.; Porter, M.E. Clusters and the New Economics of Competition. Harvard Business Review, Nov–Dec 1998.; Saxenian, A. Regional Advantage: Culture and Competition in Silicon Valley and Route 128. Harvard University Press, 1994.; Krugman, P. Geography and Trade. MIT Press, 1991.; Markusen, A. Sticky Places in Slippery Space: A Typology of Industrial Districts. Economic Geography, 1996.; Storper, M. The Regional World: Territorial Development in a Global Economy. Guilford Press, 1997.; Boschma, R. Proximity and Innovation: A Critical Assessment. Regional Studies, 2005.; Rosenfeld, S.A. Bringing Business Clusters into the Mainstream of Economic Development. European Planning Studies, 2002.; Cooke, P. Regional Innovation Systems: The Role of Governance in a Globalized World. Journal of Technology Transfer, 2001.; Florida, R. The Rise of the Creative Class. Basic Books, 2002.

Shuningdek, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarida klasterlarni rivojlantirish, iqtisodiy integratsiya va mintaqaviy rivojlanish sohasida E.V.Bochkova, T.V.Mirol'yubova, T.V.Karlina, T.Y.Kovaleva, A.P.Kaplina, V.Abashkin, A.Boyarov, E.Kutsenko, P.A.Suxanova, D.G.Rodionov, A. Y.Afanasov, A.A.Gorovoy, E.I.Gorodnichaya, M.A.Govor, Y.S.Artomonova, B.B.Xurustalev, K.Onishchenko ilmiy tadqiqot ishlarida yoritilgan<sup>4</sup>. Klaster bilan bog'liq jarayonlarni Nikolay Vladimirovich Panov, Viktor Georgiyevich Tretyakovlar tadqiq qilganlar<sup>5</sup>. Fermer xo'jaliklarining iqtisodiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari samaradorligini statistik baholash, ekonometrik modellashtirish va miqdoriy jihatdan o'rganish masalalarida Braslavets Mariya Vladimirovna, Chuyev Ivan Nikolaevich, Dubin Ivan Nikolaevich, Kras Mariya Sergeyevna, Kundius Vladimir Aleksandrovich, Xarchenko Nina Mikhailovna kabi olimlar tadqiqot olib borganlar<sup>6</sup>.

O'zbekistonda fermer xo'jaliklarini iqtisodiy qo'llab-quvvatlash, ularning faoliyat samaradorligini oshirish va statistik tahlil qilish masalalari Berkinov B.B., T.Sh.Shodiyev, B.Y.Xodiyev, Mahmudov N.M., A.M.Abdullayev,

---

<sup>4</sup> Бочкова Е.В. Нормативно-правовой механизм формирования кластерных структур в России // Вестник КрасГАУ. - М., 2013. - № 8. - С. 11-12; Миролюбова Т.В., Карлина Т.В., Ковалева Т.Ю. Закономерности и факторы формирования и развития региональных кластеров. Монография / Т.В.Миролюбова, Т.В.Карлина, Т.Ю.Ковалева - Пермь: Перм. гос. нац. исслед. ун-та., 2013. - 280 с.; Каплина А.В. Анализ моделей формирования кластерных структур в системе региональной экономики [Электронный ресурс] / А.В.Каплина // Экономика и управление, 2014. - № 5 (114). - С. 57-62; Абашкин В., Бояров А., Куценко Е. Кластерная политика в России: от теории к практике / В. Абашкин // Форсайт. - Т. 6. № 3. - 2012. - С. 16-27; Суханова П.А. Факторы развития эффективных кластеров / Суханова П.А. // Электронный научный журнал, 2016. - № 7 (10). - С. 323-329; Родионов Д.Г., Афанасов А.Ю., Горовой А.А. Зарубежный опыт формирования и реализации региональной кластерной политики // Мир экономики и права. - М., 2014. - № 6. - С. 4-16; Городничая Е.И. Зарубежный опыт государственного стимулирования формирования кластеров // Вестник Московского университета. Серия 6. Экономика. - М., 2010. - № 1. - С. 15-26; Говор М.А. Экономический механизм формирования кластера, как инструмент пространственного развития региональной экономики. Автореферат дис. канд. экон. наук: 08.00.05. — Мурманск, 2019. - 39 с.; Onishenko, K. The method of calculating the economic efficiency of the functioning of the grain product cluster // Economy of Crimea, 2011. - № 2.

<sup>5</sup> Tretyakov, V.G. Региональные кластеры и инновационная политика. — Москва, 2015.; Panov, N.V. Экономическая эффективность кластерных формирований. — Минск, 2016.

<sup>6</sup> Браславец М.В. и др. Математическое моделирование экономических процессов в сельском хозяйстве. — М.: Колос, 1998. — 589 с.; Красс М.С., Чупрынов Б.П. Основы математики в экономическом образовании. — М.: Дело, 2008. — 341 с.; Харченко Н.М. Экономическая статистика. — М.: ИТК «Дашков и Ко», 2010. — 296с.; Кундиус В.А. Экономика агропромышленного комплекса. — М.: Издательство КноРус, 2010. — 570 с.; Чуев И.Н., Чуева Л.Н. Комплексный анализ хозяйственной деятельности. — М.: ИТК «Дашков и Ко», 2010. — 420 с.; Дубина И.Н. Математико-статистические методы в эмпирических социально-экономических исследованиях. — М.: Финансы и статистика, 2010. — 643 с.